

Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida 21 ta tuman 157 ta mahallada Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan umumiy qiymati 260,0 mln dollarlik Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasining PASPORTI

1. Amalga oshirish muddati: 2024-2028 yy.

2. Loyihani bosqichi: yildan-yilga o‘tuvchi loyiha/yangi qurilish, rekonstruksiya, mukammal ta‘mirlash.

3. Xorijiy investor nomi va davlati: Islom taraqqiyot banki (Saudiya Arabistoni)

4. Ishlab chiqaradigan asosiy mahsulotlar nomi va yillik quvvati: Ko‘zda tutilmagan.

5. Loyihaning maqsadli ko‘rsatkichlari:

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Loyiha qiymati	Shundan 2025-yilda o‘zlashtirish	
I. Loyihaning umumiy qiymati (shundan)		mln doll	293,5	25,0	
1.1.	O‘z mablag‘lari				
1.2.	To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar				
1.3.	Tijorat banklarining xorijiy kredit liniyalari				
1.4.	Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kredit liniyalari		260,0	25,0	
1.5.	Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari				
1.6.	Tijorat bank mablag‘lari kreditlari				
1.7.	O‘zbekiston Respublikasi ulushi		33,5		
II. Yaratiladigan ish o‘rinlari soni					
2.1	Doimiy	nafar	Loyiha yakunlangandan so‘ng 10 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari barpo etiladi		
2.2	Mavsumiy	nafar			
III. Boshqa ko‘rsatkichlar (maqsadiga ko‘ra quvvat va natura o‘zgartirilishi talab etiladi)					
3.1	Yillik ishlab chiqarish / xizmat quvvati	naturada	Ko‘zda tutilmagan		
3.2	Yillik ishlab chiqarish / xizmat hajmi	mlrd. so‘m	Ko‘zda tutilmagan		
3.3.	Xizmat ko‘rsatuvchi bank (asosiy hisobraqam bo‘yicha)		Ipoteka Bank Toshkent shahar amaliyot boshqarmasi		
3.4.	STIR raqami		307829948		
IV. Talab etiladigan infratuzilma tarmoqlari					
	Elektr energiyasi	Ichimlik suvi	Avtomobil yo‘li	Ijtimoiy soha obyektlari	Sug‘orish va irrigatsiya tizimi
O‘lchov birligi					
Qiymati (mln. so‘m)					

6.Loyihani amalga oshirishda talab etiladigan yer maydoni

Jami yer maydoni (ga)	shundan, (ga)		
	sanoat uchun mo'ljallangan	sug'oriladigan	sug'orilmaydigan
Ko'zda tutilmagan			

7. Loyiha to'liq quvvatda ishga tushirilganda erishiladigan natijalar:

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi tomonidan 769 ta birlamchi va dolzarb muammolari aniqlab olindi. 769 ta obyekt to'liq ishga tushirilganda 622 ming dan ortiq aholi uchun qulay muhit barpo etiladi hamda aholi punktlarini me'moriy qiyofasi va turmush sharoiti yaxshilanadi.

8. Loyiha doirasida bajarilgan ishlar va jadallashtirish yuzasidan takliflar:

Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinbosari S.Sadullaev boshchiligidagi 2024-yil aprel oyida mas'ul ijrochilar (hokimlik va vazirlik) ishtirokida muhokama yig'ilishi o'tkazilib, amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi va BMT TD o'rtasida 2024-yil 15-may kuni kelishuv imzolandi.

Iqtisodiyot va moliya vazirining birinchi o'rinbosari I.I.Norqulov Qashqadaryo viloyati hokimi M.B.Azimov, Samarqand viloyati hokimi E.O.Turdimov va Surxondaryo viloyati hokimi U.B.Qosimov bilan birgalikda mazkur qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha "yo'l xaritasi" va Loyiha doirasida amalga oshiriladigan subloyihalar bo'yicha hisobot tayyorlanib, 2024-yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi.

Birlashtirilgan loyihalarni amalga oshirish guruhi (keyingi o'rinlarida –BLAOG) va BMT TD bilan birgalikda joriy yilning 13-15-may kunlari Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida viloyat hokimining birinchi o'rinbosari boshchiligidagi tegishli tuman hokimlarining o'rinbosarlari, mahalla raislari, boshqarma va tashkilotlar bilan Loyihaning taqdimoti o'tkazildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi BLAOG tomonidan jamoatchilikni safarbar etish bo'yicha ishlab chiqilgan seminar jadvaliga muvofiq, BMT TD tomonidan jamoatchilikni safarbar etish ishlari boshlandi. Biriktirilgan mahallada ko'chaboshilar, erkaklar, ayollar, yoshlar, nafaqadagi fuqarolar va boshqa mahalla faollari, shuningdek, mahalliy hokimlik, tuman idora va tashkilotlari (maktabgacha va maktab ta'limi, tibbiyot, kommunal xizmat, yo'l, obodonlashtirish va h.k) bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

BMT TD tomonidan 2025-yil 1-mart holatiga ko'ra jami 157 ta mahallada jamoatchilik safarbarlik seminarlari (JSS) tashkil qilindi. Mazkur seminarlarda 11 000 nafar aholi ishtirok etdi, shundan 6 587 nafari erkaklar va 4 413 nafari ayollardan iborat. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 45 ta, Samarqand viloyatida 52 ta hamda Surxondaryo viloyatida 60 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida uchrashuvlar o'tkazildi.

Surxondaryo viloyatining 60 ta mahallalarida texnik va vizual tekshiruvlar, Qashqadaryo viloyatining 45 ta mahallalarida vizual hamda 40 ta mahallalarida texnik tekshiruvlar, shuningdek, Samarqand viloyatining 52 ta mahallalarida vizual va 31 ta mahallalarida texnik tekshiruvlar o'tkazildi.

Shuningdek, 2025-yil aprel oyida ko'makchi hamkor tomonidan jamoa safarbarlik ishlari yakunlanishi natijasida **769 ta** birlamchi va dolzarb muammolar aniqlandi. Jumladan, Samarqand viloyatida **279 ta**, Qashqadaryo viloyatida **212 ta** va Surxondaryo viloyatida **278 ta**. Aniqlangan subloyihalar viloyat va tuman hokimliklari, vazirliklar, xalq deputatlari va tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi.

Ushbu loyihani amalga oshirilishini jadallashtirish maqsadida 2025-yil 3-mart oyida Vazirlar Mahkamasining 124-f-son farmoyishi tasdiqlandi, unga ko‘ra, loyihachi tashkilotlar yo‘nalishlar kesimida belgilab olindi hamda joriy yilning 1-avgustiga qadar obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ekspertiza xulosalarini olish ko‘zda tutildi.

Farmoyishga ko‘ra, asosiy vazifalar belgilab berildi. Bunda,

1. Qashqadaryo, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari “Yagona buyurtmachi xizmati injineriing kompaniyasi” DUKlar buyurtmachi hisoblanadi.

2. Ijtimoiy soha muassasalari, piyodalar yo‘laklari, tungi yoritish uskunalari hamda irrigatsiya tarmoqlari bo‘yicha “Qishloq qurilish loyiha” bosh loyiha instituti DM loyihachi tashkilot hisoblanadi.

3. Ichki yo‘llar va ko‘priklarni qurish va ta‘mirlash ishlari bo‘yicha “O‘zyo‘lloyiha loyiha-qidiruv instituti” DUK va “Yo‘l-loyiha byurosi” MChJ bosh loyihachi tashkilot etib belgilangan.

4. Ichimlik suvi va oqava suv tarmoqlari bo‘yicha “O‘zsvuta‘minot” AJ huzuridagi buyurtmachi tashkilot buyurtmachi “Kommunal loyiha ilmiy-tadqiqot instituti” bosh loyiha tashkilot etib belgilangan.

5. Elektr energiyasi bilan ta‘minlash bo‘yicha “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tarkibidagi tashkilotlarini bosh loyihachi tashkilot etib belgilangan.

Mazkur farmoyish asosida obyektlarning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlari boshlangan bo‘lib, sentabr-oktabr oylarida pudratchi tashkilotlarni aniqlash bo‘yicha tender savdolari e‘lon qilinadi, oktabr oylarida pudratchi tashkilotlar bosqichma-bosqich aniqlanib, shartnomalar imzolanishi tashkillashtiriladi.

9. Loyiha bo‘yicha fotosuratlar:



2023-yil 26-aprelda Toshkent shahrida Islom taraqqiyot banki va O‘zbekiston Hukumati o‘rtasida kredit ajratish bo‘yicha kelishuv imzonlandi.



2024-yil 15-mayda Toshkent shahrida Iqtisodiyot va moliya vazirligi va BMTTD o‘rtasida kelishuv imzolandi



Qushtamg‘ali MFY (Samarqand viloyati) jamoa safarbarlik ishlari



Bahrin MFY (Samarhand viloyati) jamoa safarbarlik ishlari



Mehnatobod MFY (Surxondaryo viloyati) jamoa safarbarlik ishlari



Yangiobod MFY (Surxondaryo viloyati) jamoa safarbarlik ishlari



Istiqlol MFY (Qashqadaryo viloyati) jamoa safarbarlik ishlari



Amir Temur MFY (Qashqadaryo viloyati) jamoa safarbarlik ishlari



Qorabuloq MFY (Samarqand viloyati) vizual va verifikatsiya jarayonlari



Navbahor MFY (Samarqand viloyati) vizual va verifikatsiya jarayonlari



Temir darvoza MFY (Surxondaryo viloyati) vizual va verifikatsiya jarayonlari



Qorabog' MFY (Surxondaryo viloyati) vizual va verifikatsiya jarayonlari



Oqdaryo MFY (Qashqadaryo viloyati) vizual va verifikatsiya jarayonlari



Samarqand MFY (Qashqadaryo viloyati) vizual va verifikatsiya jarayonlari

Loyiha doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida loyiha rasmiy veb-sayti (www.uzrd.uz) va ijtimoiy tarmoqlar hamda boshqa OAVda yangiliklar e'lon qilib borilmoqda. Jumladan, bugungi kunga qadar loyiha doirasida **91 ta** xabar va yangilik, **16 ta** televideniya materialini hamda **1 ta** gazeta maqolasi chop etilganini ma'lum qilamiz.